



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## FUQAROLARINING REFERENDUMDA ISHTIROK ETISH HUQUQI

Suvonqulov Jamshid Abdulahadovich -  
JDPU dotsenti vazifasini bajaruvchi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Annotatsiya:** Maqolada referendum tushunchasining huquqiy tushunchasi, referendum o'tkazishning huquqiy asoslari tahlil qilinib, fuqarolarning referendumda ishtirok etish huquqi bo'yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** referendum, fuqarolarning referendumda ishtirok etish huquqi, Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy Qonun, huquqiy targ'ibot.

**Аннотация:** В статье анализируется юридическое понятие понятия референдума, правовые основы проведения референдума, а также комментируются права граждан на участие в референдуме.

**Ключевые слова:** референдум, право граждан на участие в референдуме, Конституция, Конституционный закон, юридическая защита.

**Abstract:** The article analyzes the legal concept of the concept of a referendum, the legal basis for holding a referendum, and also comments on the rights of citizens to participate in a referendum.

**Keywords:** referendum, the right of citizens to participate in a referendum, the Constitution, the Constitutional law, legal protection.

Referendum (lot. "referendum" - nima kerak bo'lsa qilish ma'nosida) – bevosita demokratiyaning muhim instituti bo'lib, davlat va jamiyat ahamiyatiga bog'liq masalalarni ovoz berish yo'li bilan amalga oshirishni o'zida aks ettiradi. Referendum saylovlardan farq qiladi, ya'ni u mansabdor shaxslarni emas, balki davlat va jamiyat ahamiyatiga molik ishlarni - qonun, qonun loyihasi, Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalalarini hamda ichki siyosiy muammolarni hal qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Mamlakatimizda mana shunday muhim vazifalardan biri sifatida 2023 yil 30 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha referendum bo'lib o'tadi. Ushbu masalada "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasi matbuotda e'lon qilindi.

Mazkur Qonun loyihasiga fuqarolar tomonidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushdi. Bu esa fuqarolarning davlat va jamoat ishlarida bevosita ishtirok etib, referendumda o'z haq – huquqlari uchun faol qatnashishga intilayotganligini ko'rsatadi.

2023 yil 9-10 martkunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha referendum o'tkazish masalasi atroflicha muhokama qilinib, 2023 yilning 30 – aprel kuni referendum o'tkazilishi belgilandi.

2023 yil 13 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi qarorining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash to‘g‘risidagi ish yuzasidan KSQ-4-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilgan ushbu sud qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023 yil 10 martda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi 3017-IV-son qarori hamda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq deb topildi.

Mzkur Qonun loyihasi 2023 yil 14 martdagi Oliy Majlis Senatining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi SQ-702-IV-son qarori bilan ma’qullandi.

2001 yil 30 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonunning 6-moddasiga ko‘ra, Referendum o‘tkaziladigan kunga qadar yoki referendum kunida o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan yoki turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi referendumda ishtirok etishga to‘la haqlidir.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar referendumda ishtirok etish huquqiga ega emaslar.

Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma’lumoti, tili, dinga munosabati, mashg‘ulotining turi va xususiyatiga qarab fuqarolarning referendumda qatnashish huquqlarini bevosita yoki bilvosita cheklash man etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining referendumini (bundan buyon matnda referendum deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir.

Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi. Agar referendumda qabul qilingan qarorlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, referendumda qabul qilingan qarorlar faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.



O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari referendum o‘tkazilishini yoqlab yoki unga qarshi, referendumga qo‘yilayotgan qonun loyihasi, amaldagi qonun yoki boshqa masalani yoqlab yoki unga qarshi moneliksiz tashviqot olib borishga haqlidirlar.

Referendumga qo‘yiladigan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish maqsadida radio, televidenie va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish mumkin.

Tashviqotni fuqarolarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, xizmatlar ko‘rsatish (axborot xizmatlari bundan mustasno), shuningdek pul mablag‘lari to‘lash bilan qo‘shib olib borish taqiqlanadi.

Referendum o‘tkaziladigan kunda va referendumni o‘tkazishga bir kun qolganda tashviqot yuritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mamlakatimizning butun hududida, xususan, Jizzax viloyatida ham referendum o‘tkazish, targ‘ibot-tashviqot ishlari bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar professor-o‘qituvchilar jonbozligida samarali amalga oshirilmoqda.

O‘ylaymizki, barcha fuqarolarimiz mazkur siyosiy-huquqiy-tarixiy jarayonga o‘z hissalarini munosib qo‘shishiga ishonchimiz komil.

#### **Foydananilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. 2023 yil 13 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023 yil 10 martda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi 3017-IV-son qarori.
4. Mzkur Qonun loyihasi 2023 yil 14 martdagi Oliy Majlis Senatining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish haqida”gi SQ-702-IV-son qarori.
5. 2001 yil 30 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni.